

XX ASR NASRIDA IJODKOR SHAXS OBRAZINING TASNIFI

Xamrayeva Anora Abdusattor qizi,
O'zbekiston Milliy Universiteti magistri
Email: xamrayevaanora2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon va o'zbek adabiyotidan o'rin egallagan asarlar va ulardagi ijodkor shaxs obrazlari tahlil qilingan. Tadqiqotda William Sydney Portnering "So'ngi yaproq", Jan Dominik Bobbining "Skafandr va kapalak", Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlaridagi ijodkor shaxs obrazi, yozuvchining bu obrazlarni yoritishdagi mahoratlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu maqolada ijodkor shaxs obrazlari orqali yozuvchining ichki olamiga kirish, unda kechayotgan ruhiy kechinmalarni anglash, asardagi asosiy g'oyaviy ruhini chuqurroq tahlil qilishning imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor, ijodkor shaxs obrazi, "So'ggi yaproq", "Skafandr va kapalak", "Sarob", g'oyaviy ruh, ruhiy kechinma.

Abstract. This article analyzes works from world and Uzbek literature, focusing on the images of creative individuals depicted within them. The study examines the portrayal of the creative personality in William Sydney Porter's "The Last Leaf", Jean-Dominique Bauby's "The Diving Bell and the Butterfly", and Abdulla Qahhor's "Sarob", as well as the authors' artistic mastery in presenting these characters. Furthermore, the article highlights how, through such images, it becomes possible to explore the writer's inner world, understand the psychological experiences reflected in the works, and conduct a deeper analysis of their underlying ideological essence.

Keywords: creator, image of the creative personality, "The Last Leaf", "The Diving Bell and the Butterfly", "Sarob", ideological essence, psychological experience.

Аннотация: В данной статье анализируются произведения, занимающие важное место в мировой и узбекской литературе, а также образы творческой личности, представленные в них. В исследовании рассматриваются образы творческой личности в произведениях Уильяма Сиднея Портера «Последний лист», Доминика Бобби «Скафандр и бабочка», Абдуллы Каххара «Мираж», а также мастерство писателей в раскрытии данных образов. Кроме того, в статье освещаются возможности более глубокого анализа основной идейной сущности произведения через проникновение во внутренний мир писателя посредством образов творческой личности и понимание происходящих в нём духовных переживаний.

Ключевые слова: Ключевые слова: творец, образ творческой личности, «Последний лист», «Скафандр и бабочка», «Мираж», идейная сущность, духовные переживания.

Kirish. Dunyo adabiyotshunosligida ijod, ijodiy qobilyat, ijod jarayoni, ijod psixologiyasi va ijodkor shaxs obrazi ancha vaqtdan beri o'rganib kelinayotgan masalalar bo'lib bu borada haligacha tadqiqotlar davom etmoqda. Bu mavzuning anchayin murakkab shu bilan birga qiziq ekanligini anglatadi. XX asrgacha bo'lgan adabiy jarayonda asosan ijodkor shaxsning hayotiga e'tibor berilgan bo'lsa, XX asr adabiyotidan boshlab ijod jarayoni, ijodkorning ruhiy olami, tafakkur dunyosini tadqiq etishga e'tibor berila boshlandi. Ijodkor shaxslar orasida so'z san'atkori obrazi badiiy adabiyotda ko'proq uchraydi. Muallif o'z asariga ijodkor obrazini kiritar ekan o'sha obrazda ozmi ko'pmi muallifning ijodkor shaxsi nomoyon bo'ladi. Muallif yetkazmoqchi bo'lgan g'oya ijodkor shaxs obrazida o'zgacha ifoda topadi. Barcha davrlarda ijodkor shaxslar jamiyatning eng faol vakillari qatorida bo'lib kelishgan. Ular jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni boshqalarga qaraganda teranroq anglashgan.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada XX asr jahon va o‘zbek adabiyoti nasrida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan quyidagi asarlar tahlil qilingan: William Sydney Porterning “So‘ngi yaproq” asari: Yozuvchi ijodkor shaxs obrazi orqali ijodning hayotbaxsh kuchini ko‘rsatib beradi. Jan Dominik Bobbinning “Skafandr va kapalak” asari: Nafaqat fransuz adabiyotida, balki butun dunyo adabiyoti muxlislari tomonidan iliq kutib olingan bu asar Yevropa adabiyotida tub burilish yasadi deya aytishimiz mumkin. Abdulla Qahhorning “Sarob” romani: XX asr o‘zbek milliy adabiyotida markazida ijodkor shaxs turgan ilk psixologik roman hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada psixologik, biografik tahlil metodidan foydalanilgan. Tadqiqotda William Sydney Porterning “So‘ngi yaproq”, Jan Dominik Bobbinning “Skafandr va kapalak”, Abdulla Qahhorning “Sarob” romanlaridagi ijodkor shaxs obrazi, bu obraz orqali asarda qalamga olingan mavzuga ijodkor nigohi bilan qarash, jamiyatdagi illatlarni shu obraz orqali yanada teran ochib berish imkonini berishi ochib berilgan. Shuningdek, boshqa asarlarda yaratilgan turli obrazlardan farqli ravishda, ijodkor shaxs obrazi o‘zining murakkabligi, muallif ruhiyatiga yaqinligi, davrning ijtimoiy hayotiga ijodkor ko‘zi bilan qarash, ijodkorda kechayotgan ichki kechinmalarni anglashi bilan ajralib turishi va kitobxonga o‘zgacha zavq baxsh etishi yoritib berilgan. Xususan, bu jihatlarni ochib berish uchun asarlardagi ijodkor shaxs obrazi, asar g‘oya va mavzusi tahlilga olingan.

Tahlil va natijalar. G‘arb va Sharq adabiyotida yaratilgan asarlarda aks etgan ijodkor shaxslar orasida muayyan mushtaraklik mavjud bo‘lsada, ularning yashash muhiti, qadryatlar, adabiy muhitning boshqaligi bilan bir-biridan farq qiladi. G‘arb adabiyotida ijodkor shaxslar jamiyatdagi tuzumdan norozi, doimo isyonkor, muhitga moslashishni istamaydigan qilib tasvirlanadi. Ular ko‘pincha yolg‘iz, nochorlikda hayot kechirishadi. Jamiyatda yuz berayotgan nohaqliklar, shavqatsizliklar ularni haqiqiy ijodkorga xos iroda va ruhiyatning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Jamiyatga moslasha olmagan ijodkorlar doimo o‘zlarining tasavvur olamlarida yashashadi, bu esa o‘sha jamiyatdagi boshqa insonlarga telbalikdek tuyiladi. Ular doimo hayotning asl mazmuni izlab yashashadi va bu yo‘lda jon berishadi. Ko‘pincha ularning hayotlari fojea bilan yakunlanadi.

Amerika adabiyotida o‘zining novellalari bilan tanilgan William Sydney Porter O.Genri taxallusi bilan ijod qilgan. Uning “So‘nggi yaproq” asarida ijodkor shaxs obrazi orqali ijodning hayotbaxsh kuchini ko‘rsatib beradi. Asar voqealari ijodkor rassomlar dahasida bo‘lib o‘tadi. O‘lim to‘shagida yotgan ayol deraza tashqarisidagi daraxtga tun-u kun boqib hattoki, o‘z umrini shu daraxt barglariga qiyoslab, o‘limini kutishni boshlaydi. Bemoning yaqinlari, shifokorlar unga qancha dalda berishmasin, unda hayotga bo‘lgan muhabbatni qaytara olishmaydi. O‘z umri tugashini daraxtdagi so‘nggi yaproq tushishi bilan bog‘lagan bemor ortiq bu hayotda yashashga o‘zida kuch topolmaydi. Lekin o‘sha yaproq bemor kutgan daqiqalarda tushmaydi. Sababi bu oddiy daraxt bo‘lmay, do‘sti rassom Berman tomonidan chizilgan surat bo‘ladi. Derazadagi

tasvir shunchalik tabiiy chiqqan ediki, buni hatto bemor anglamaydi. Deraza ortidagi shamol va kuchli yomg'irga qaramay, yaproq hali ham o'z bandidan uzilmaganligiga hayron qoladi. Shu voqeadan so'ng o'zida yashashga kuch topib sog'ayishni boshlaydi. Asar qahramoni rassom Berman bir insonning hayotini qutqarib qolish uchun o'z hayotini qurbon qiladi. O'ziga berilgan is'tedodini boshqa insonning yashab qolishi uchun bag'ishlaydi. Asarda ba'zida insonning bardoshi va tibbiyot ojizlik qilgan joyda ijodkorlik insonga yangi hayot taqdim eta olishi, unda shunday ilohiy kuch mavjud degan g'oya ilgari suriladi.

O'tgan asrning oxirlarida fransuz adabiyotida e'lon qilingan Jan Dominik Bobbinning "Skafandr va kapalak" asari nafaqat fransuz adabiyotida, balki butun dunyo adabiyoti muxlislari tomonidan iliq kutib olindi. Bu asar Yevropa adabiyotida tub burilish yasadi deya aytishimiz mumkin. Shu o'rinda Asqad Muxtorning quyidagi gaplarini eslasak: "Ijodkor katta shaxsiy va ijodiy tajribaga ega bo'lmog'i lozim. Yozuvchining shaxsiy tajribasi, biografiyasi "oltin fond" bo'lib, u hayotda, shu jumladan, asarda ro'y berayotgan voqea va hodisalarni tushuntiruvchi kalitdir". Bu asar avtobiografik xarakterga ega bo'lib, bosh qahramon yozuvchining o'zidir. Yozuvchi bu asarni yozayotganida falaj ahvolda bo'ladi, lekin shunga qaramay, ijod qilishdan to'xtamaydi. Aslida falajlikka chalingan insonda yashashdan ma'no yo'qdek, hech qanday harakatlarsiz, bir nuqtaga termulib yotishdan ko'ra, o'lim afzalroqdek tuyuladi. Oddiy insonlar falajlikdan o'limni afzal ko'rsalar, bosh qahramon esa unda boshqa narsani ko'radi. Sababi u yozuvchi, ya'ni ijodkor boshqalar ilg'amagan hayot haqiqatlarini ko'rishga qodir. Har bir ijodkor hayot haqiqatlarini izlab yasharkan, bu haqiqatlarni, hayotning tub ma'nosini tushunishga va shu narsani boshqalarga yetkazishga harakat qiladi. "Ijod, ijodkorlik – o'zini o'rab turgan olam, atrofdagi odamlar, voqealar, hodisalarni va o'zini o'zi o'qiy olish salohiyatidir. Bunaqa salohiyat hammaga ham berilavermaydi. O'zini o'rab turgan olamni hamma ko'radi, voqea-hodisalarga guvoh bo'ladi, o'zini har kuni ko'zguga soladi. U tashqaridagi ranglarni, fasllar almashishini, o'zining tanasidagi o'zgarishlarni ko'rishi, voqelikni mish-mish yo cho'pchak shaklida qabul qilishi mumkin, lekin o'ziga, o'sha arziymasday ko'ringan voqea-hodisalarga yashiringan yoki har kuni ko'rib o'rgangan ko'z oldidagi dunyoga bitilgan hikmatlarni, badiiylikni, ma'noni o'qiy olmaydi" [1.11] Asarda ijodkorni hayotda ushlab turgan ilinj ham ijod qilishga bo'lgan ishtiyoq. Yozuvchi qahramon insoniyatni o'zi anglab yetgan hayot falsafasi bilan tanishtirmoqchi, hayotning asl ma'nosini o'z kitobi orqali kitobxonga yetkazmoqchi bo'ladi. Ana shu narsa uni bu hayotda yashashga undaydi, u shundan har kuni kuch oladi. Asarda yozuvchi anglab yetgan haqiqat shundaki, "Inson qachon hayotda haqiqatan yashagan bo'ladi? Qachonki atrofiga nazar tashlasa, bo'layotgan voqealardan o'ziga xulosa chiqarsagina u inson yashayotgan bo'ladi. Insonlar atrofidagi narsalarga diqqat bilan qarashi, tabiat in'om etgan go'zallikdan zavq olib yashashi kerak. Chunki bu fursatlarr ularga qaytib taqdim etilmaydi". Aslida, adabiyotning asosiy vazifasi ham insonlarning hayotiga ko'zgu

tutishdan iborat. Bu ko'zgu vazifasini badiiy adabiyot o'taydi. U insondagi bor kamchilik, illat, qusur va gunohlarni ochib tashlaydi. Asarning bosh qismlarida yozuvchi bu kasallik menga "super lotoreya"dan chiqdi deya istehzo qiladi (sababi o'sha davrda bu kasallik Fransiyada ikki kishida aniqlangandi xolos). Lekin ijodkorga hayot bu "super lotoreya" orqali boshqa narsanni ham taqdim qilgandi. Yozuvchi bu kasallik orqali hayot mazmunini anglab yetdi, balki o'z nomini abadiylikka muhrladi. Asarda ijodkorning boy tasavvuri, ruhining chidamliligi va kuchi aks ettiriladi. Jahon adabiyotida ijodkor shaxs obrazi yaratilar ekan doimiy ijtimoiy muhitdan qoniqmaslik, iste'dod davr kishilari tomonidan qadrlanmasligi, ijodkorlarning kambag'allik va darbadarlikda hayot kechirishi tasvirlari ko'p uchraydi. Bunday holat go'yo jahon adabiyotida ijodkor shaxs obrazini yaratishda davom etib kelayotgan an'anadek

Yozuvchining g'oyaviy badiiy niyatini ifodalash uchun eng muhim omil bo'lgan ijodkor obrazi aks etgan asarlar o'zbek adabiyotida ham anchagina. XX asr o'zbek milliy adabiyotida markazida ijodkor shaxs turgan ilk psixologik roman Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidir. Romanda ijodkor-yozuvchining tragik qismati bayon qilinadi. Asarda bosh qahramon Saidiyga tabiat in'om etgan iste'dod bilan o'sha davr tuzumi to'qnashuvi katta mahorat bilan tasvirlanadi. Saidiy o'ziga tabiat tomonidan berilgan xarakter-xususiyatlarni jamoaviylik psixologiyasi, monopolistik mafkuraga moslashtira olmay, daf'atan paydo bo'lgan katta ijtimoiy o'zgarishlar ichida haq yo'lni, hech bo'lmaganda halokatdan yiroq bo'lgan yo'lni anglay olmay qoladi. Saidiy juda tortinchoq, odamovi, boshqalarning davrasiga qo'shib ketolmaydigan yigit sifatida tasvirlanadi. Xohlagan odam bilan darrov chiqishib keta olmaslik, ichidagi bo'layotgan g'alayonlarni ommaga ko'rsata olmaslik, boshqalar oldida doimo o'zini noqulay va begonadek sezish unga yo'l tanlashga va o'zini ijodkorman deb tanitishga doimo to'sqinlik qiladi. Saidiy o'zi yashayotgan tarixiy zamonda ikki qudratli mafkuraning o'rtasida qolib ketadi. Mashhurlikka erishish ilinjida zamon daryosi qaysi tomonga oqayotganini payqamay qolgan va ildizi faqat puch g'oyalarga asoslangan anchagina zaif oqim tarafida qolib ketadi. Natijada iste'dodi ham halokatga yuz tutadi. Yozuvchi shunchaki ijodkor bo'lmay, ruhshunosh hamdir. Adib o'z asarini yaratar ekan, undagi qahramonlarning ichki kechinmlarini, ruhiy holatlarini juda yaxshi anglaydi. Abdulla Qahhor o'z qahramoning ruhiy – psixologik holatlarini ularning harakatlari orqali ko'rsatadi. Shu narsani ham e'tiborga olish kerakki, Saidiyning halokatga yetaklagan narsa faqat tashqi omillar emas, balki uning ichki ruhiyatidagi o'zgarishlardir. Saidiy obrazining adabiyotshunoslikdagi ayrim talqinlarida uning ijodkor shaxs ekanligiga urg'u berilmagan. Bu obraz ko'proq o'zining manfaatini o'ylaydigan xudbin inson sifatida ta'riflab kelingan. Lekin keyinchalik bu asar bosh qahramonidagi ijodkorlik sifatleri, uning ruhiy kechinmalari, ichki olami tadqiq qilina boshlandi. Abdulla Qahhorning bu asari juda ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Asar yaratilganidan so'ng juda ko'p tanqidlarga uchragan. "Sarob" romani bo'yicha adabiyotshunoslarimiz ko'plab

tadqiqotlarni amalga oshirishgan bo'lib, ijodkor shaxsi, ijod jarayoni, ijodkor psixologiyasini ochib berishda biografik, sotsiologik, psixalogik, metodlardan foydalanishgan. Qahhor ijodi, xususan, "Sarob" romaniga oid juda ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, H.Abdusamatov, S.Mirvaliyev, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, S.Sodiqov, M.Olimov, R.Qo'chqorov qalamiga mansub asarlarda, tadqiqot va maqolalar bunga misol bo'la oladi. Saidiy obrazining adabiyotshunoslikdagi ayrim talqinlarida uning ijodkor shaxs ekanligiga urg'u berilmagan. Bu obraz ko'proq o'zining manfaatini o'ylaydigan xudbin inson sifatida ta'riflab kelingan. Adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov Saidiy hayotida yuz beradigan voqealarni: "odamovilik, tevarak-atrofdagilarni yoqtirmaslik, ular bilan hisoblashmaslik, tabiatidagi barqaror, turg'un belgi",- deb ta'kidlaydi.[3.64] Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov Saidiy universitetda o'qishni xohlamaganligi va kursdoshlarini mensimaganini xudbinlik deb ataydi. Qaysidir ma'noda bu fikr to'g'ri. Va bu holatga ko'p o'rinlarda duch kelamiz. Ammo yuksak orzu-umidlar bilan kelgan Saidiy universitetagi ahvolni ko'rib hafsalasi pir bo'ladi. "Universitetdagi ko'p ishlar Saidiyga ma'qul bo'lmadi. U bilan bir gruppada o'tirganlar ichida yaxshi, vujudidan qobilyat yog'ilib turganlar ham bor; nazarida qo'pol, ming yil o'qiganda ham "nam" o'tmaydigan ko'ringan, aslida jismoniy mehnat uchungina yaratilganlar ham bor. Bularni ko'rganda Saidiy afsuslanar edi: "Shular ham student! O'zlarigina emas, o'qishga yuborgan tashkilotlar ham sarf qilinadigan mehnatning bekorga ketmasligiga ishonadi. [4.13] Ammo xudbinlik faqat Saidiy yoki ijodkorlarga tegishli sifat emas, umuman insoniyatga xosdir. Xudbinlikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish orqali Saidiy shaxsiyatidagi bu kamchilik bilan uni butunlay qoralay olmaymiz.

Xohlagan odam bilan darrov chiqishib ketaolmaslik, ichidagi bo'layotgan g'alayonlarni ommaga ko'rsatolmaslik, boshqalar oldida doimo o'zini noqulay va begonadek sezish unga yo'l tanlashga va o'zini ijodkorman deb tanitishga doimo to'sqinlik qiladi. Bunday odamovi shaxsni davraga kiritgan bosh sabablardan biri Munisxonning muxabbati va yozuvchilar orasida obro' topish asnosida Salimxonning guruhidan joy egallash edi.

"Sarob" romani mamlakatimizning eng murakkab davri - o'ttizinchi yillar boshida yaratilgan asardir. Bu asar yaratilishi bilan faqat kitobxonlar emas balki, tanqidchilar shuningdek ko'plab rasmiy tashkilotlarning ham diqqatini tortdi. Bu asar turli muhokamalarga sabab bo'lib gazeta va jurnallarda asar haqida maqolalar, taqrizlar e'lon qilindi. Qahhorning "Sarob" romani ham boshqa asarlari singari mukofotga sazovor bo'ldi. "Sarob" ko'plab kitobxonlar va tanqidchilar tomonidan yuqori baholangan bo'lishiga qaramay o'ttizinchi yillarning boshlarida asar mafkuraviy jihatdan keskin tanqid qilina boshladi. O'sha davr munaqqidlari asarga baho berar ekan davr tuzumini mensimaslikda, millatchi kuchlarni targ'ib qilishda aybladi va asarni zararli deya topdi. Shu bois ancha vaqt bu asar kitobxon va munaqqidlar tomonidan tilga olinmadi. Ammo Stalin vafotidan so'ng shaxsga sig'inish oqibatlarini fosh qilinish, mamlakat mafkurasida biroz bo'lsada iliqlik hukm sura boshladi. Aynan shu davrga kelib Qahhor o'z asarini

qayta tahrir qildi va asar ikkinchi marotaba nashrga berdi. Asar yozuvchi tomonidan qaytadan tahrir qilinishiga qaramay munaqqidlar bu asrdan yana kamchiliklarni izlashda davom etishdi. Davr yangi bo'lishiga qaramay asarga nisbatan qo'yilgan aybnomalar eskiligicha qoldi. Professor H.Abdusamatov ning o'sha davr mafkurasiga xos bo'lgan fikriga e'tibor beraylik: "Romanda ijobiy personajlarning salbiy kuchga qarshi olib borgan kurashlari deyarli sezilmaydi. Dushmanlarni tor-mor qilishda, jamiyatimizda salbiy hodisalarni yo'qotishda kishilarining ko'rsatgan jonbozliklari, qahramonona qarashlari ijobiy shaxslarda to'la shaklda mujassamlashtirilganda, asar, shubxasiz, yutgan bo'lar edi". [2.93] Agar yozuvchi o'sha davr munaqqidlari talab qilganidek bosh qahramon Saidiyning Abbosxonlar guruhida emas, Ehson va Kenjalar tomonida qoldirganida asar o'z oldiga qo'ygan maqsadining uddasidan chiqmasdi va shu kungacha ko'plab munozaralarga sabab bo'lmasdi. Yozuvchi o'z g'oyasini ko'rsatib berish uchun qahramon sifatida ijodkor shaxs, doimo izlanishdan to'xtamaydigan, lekin izlana turib o'z yo'lida tez- tez adashadigan, ba'zan arosatda qolib ketadigan, o'z maqsadi yo'lida xudbinlikka ham boradigan Saidiyning tanladi. Abdulla Qahhor asosiy qahramon Saidiy orqali, uning hayotiga badiiy bo'yoqlar berish orqali, shaxsning fojeali sinishi va sindirilishini, shunidek, butun bir xalq fojiasini tasvirlaydi. Har qanday fojia zamirida ikki kuchning to'qnashuvi yotadi va bu to'qnashuv keng ko'lamlilik, ijtimoiylik kasb etadi. Bu to'qnashuvning qanday yakunlanishi inson kelajagi uning taraqqiyot taqdiri bilan bog'langandir. Bu esa fojiani falsafiy jihatdan san'atning yirik turiga aylantiradi, ijodkorga esa butun tarixi davomida o'ylantirgan masalalarni hal etish zaruriyatini asarida ilgari surish imkonini beradi. "Sarob" romanini ilk bora o'qigan kitobxon bosh qahramon Saidiy hayotida yuz bergan baxtsizlikda birinchi galda uning o'zini ayblaydi. Chunki u o'z taqdiriga nisbatan sovuqqon, befarq, o'z maqsadi yo'lida sobit turmaydigan, xudbin, o'z ixtiyorini boshqalarning qo'lga topshirgan, razolatga yuz tutgan, boshiga kelgan ko'rguliklarning barchasiga yolg'iz o'zi sababchi bo'lgan. Yuqorida sanab o'tilgan qahramondagi insoniy ojizliklarga chuqurroq nazar solar ekanmiz, uning ham ijtimoiy, ham ma'naviy ham moddiy yolg'izligini ko'rishimiz mumkin. Shu tufayli undagi boshqalarga mutelik, razolatga ergashish, bir umr yaxshi sharoit ortidan quvish tabiiy holatga aylanib qoladi. Qahramonning o'limiga boshqa nazar bilan ya'ni psixologiya tomonidan qarasa, qahramon o'limi sabablari yanada ochiqilanadi. O'zini o'limga duchor qilish insondan juda katta kuchni talab qiladi. Saidiyda o'zini o'limga hukm qilishda bir nechta sabablar bor edi. Avallo Munisxon bilan birga bo'lish orzusi allaqachon sarobga aylangan uni bu hayotda ushlab turuvchi kuch allaqachon bu dunyoni tark etgan; butun dunyo taniydigan yozuvchi bo'lish haqidagi orzulari so'ngan; mashhur yozuvchi bo'lmasa ham boy-badavlat yashash uchun esa zamon unga imkon bermayapti. Muhabbat olamida muvaffaqiyatga erisha olmaganidek ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Tabiat bergan iste'dod bilan hayotni yangidan boshlashga o'zida kuch topolmaydi. Abdulla Qahhorning bu asarida o'sha davr

mafkurasi sezilib turgan bo'lsa ham asardagi shaxsga, avvalo, inson sifatida qarash kerakligi, undagi o'y-xayol, dunyoqarash va hayotga bo'lgan nuqtayi nazarini hisobga olish zarurligini murakkab bir davrda ayta oldi. Inson ichki "men" ini bir mafkuraga bo'ysundirishga urinish katta fojiga olib kelishini ijodkor shaxs obrazi misolida ko'rsatib berdi. Murakkab va alg'ov-dalg'ovli yillar haqida so'zlovchi bu asar Saidiy obrazi orqali o'sha davr insonlari hayotining murakkab jihatlarini ochib beroldi. Yozuvchi bu voqeliklarni bosh qahramon hayotida yoritishda xolisona yondashdi, shu sababli asar san'at darajisiga ko'tarildi.

Xulosa. Jahon adabiyotida ijodkor shaxs obrazi yaratilar ekan doimiy ijtimoiy muhitdan qoniqmaslik, iste'dod davr kishilari tomonidan qadrlanmasligi, ijodkorlarning kambag'allik va darbadarlikda hayot kechirishi tasvirlari ko'p uchraydi. Bunday holat go'yo jahon adabiyotida ijodkor shaxs obrazini yaratishda davom etib kelayotgan an'anadek. Dunyo adabiyotshunosligida ijod, ijodiy qobiliyat, ijod jarayoni, ijod psixologiyasi va ijodkor shaxs obrazi ancha vaqtdan beri o'rganib kelinayotgan masalalar bo'lib bu borada haligacha tadqiqotlar davom etmoqda. XX asrgacha bo'lgan adabiy jarayonda asosan ijodkor shaxsning hayotiga e'tibor berilgan bo'lsa, XX asr adabiyotidan boshlab ijod jarayoni, ijodkorning ruhiy olami, tafakkur dunyosini tadqiq etishga e'tibor berila boshlandi. Badiiy adabiyotda ijodkor shaxs obrazi deganda ijod bilan shug'ullanuvchilar ya'ni, shoir, yozuvchi, rassom, qo'shiqchi singari soha vakillari tushiniladi. Bularning orasida so'z san'atkori obrazi badiiy adabiyotda ko'proq uchraydi. Badiiy asarlarda ijodkor inson obrazi tadqiqi ijod jarayoni, ijodkorning ruhiy olami va tafakkur dunyosini ochishga imkon beradi. G'arb va Sharq adabiyotida yaratilgan asarlarda aks etgan ijodkor shaxslar orasida muayyan mushtaraklik bo'lsada yashash muhiti, qadryatlar, adabiy muhitning boshqaligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эшонкул Назар. Мендан "мен"гача. –Т., "Академнashr", 2014.
2. Abdusamatov H. Abdulla Qahhor. –Т.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1960.
3. Шарофиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. "Ёш гвардия" нашриёти", 1988
4. Qahhor A. Sarob.Т.: "Sharq" HMK Bosh tahririyati, 1995.